

Buxoro viloyatida 2022- yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

Raqamlar:


Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar - 21 138,0 mlrd. so‘m

O‘sish sur‘ati - 92,0 %

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **21 138,0** mlrd. so‘mni yoki o‘tgan yilga nisbatan **92,0 %** ni tashkil etdi. Moliyalashtirishning manbalari bo‘yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi – **11 999,5** mlrd. so‘m yoki **56,8 %** i xorijiy investitsiyalari va kreditlari, **6 899,4** mlrd. so‘m, yoki **32,7 %** i korxonalar va aholining o‘z mablag‘lari hisobiga to‘g‘ri keladi.

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan - **2 537,6** mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi **12,0 %** ni, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan esa **18 600,4** mlrd. so‘m, jami investitsiyalardagi ulushi **88,0 %** ni tashkil qildi.



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi

	Jami investitsiyalar, mlrd. so'mda	Shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha: (jamiga nisbatan, % da)						
		Respublika byudjeti	Korxonalar va tashkilot mablag'lari	Aholi mablag'lari	Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari	Xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
Jami viloyat	21 138,0	4,8	21,6	11,1	5,1	56,8	0,6	-
Buxoro sh	3 789,8	5,6	34,3	11,2	7,7	40,9	0,3	-
Kogon sh	179,8	7,1	23,0	24,8	4,4	40,4	0,3	-
Olot	791,6	4,0	7,6	23,3	6,0	59,1	0,0	-
Buxoro	2 206,1	3,7	24,1	7,9	3,6	60,7	0,0	-
Vobkent	781,7	5,5	21,2	20,4	8,8	44,1	0,0	-
G'ijduvon	1 298,4	6,6	3,8	21,6	6,3	58,7	3,0	-
Kogon	3 741,7	1,9	2,3	4,3	3,3	88,0	0,2	-
Qorako'l	522,0	13,8	10,4	33	7,8	24,1	10,9	-
Qorovulbozor	1 226,7	2,1	22,6	2,2	2,5	70,6	0,0	-
Peshko'	1 208,8	3,4	8,4	16,2	6,4	65,6	0,0	-
Romitan	4 492,2	5,3	39,2	4,4	2,6	48,2	0,3	-
Jondor	534,7	7,7	14,9	33,2	14,2	30,0	0,0	-
Shofirkon	364,5	17,0	18,3	36,6	12,2	15,2	0,7	-


**Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish
manbalari bo'yicha tarkibi**

	Mrld. so'm	O'sish sur'ati, % da	Jamiga nisbatan, % da
Jami	21 138,0	92,0	100
<i>Markazlashgan:</i>	2 537,6	69,4	12,0
Respublika byudjeti	1 021,4	95,5	4,8
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	132,4	60,6	0,6
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlari	1 383,8	61,5	6,6
<i>Markazlashmagan:</i>	18 600,4	96,3	88,0
Korxonalar mablag'i	4 563,2	92,4	21,6
Aholi mablag'i	2 336,2	107,4	11,1
To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar	10 615,7	94,9	50,2
Tijorat bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari	1 085,3	107,6	5,1


**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning
umumiy hajmiga nisbatan moliyalashtirish
manbalarining tarkibi, % da**

Markazlashmagan

- To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Korxonalarining o'z mablag'lari
- Aholi mablag'lari
- Tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (jamiga nisbatan, % da)



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish-montaj ishlari bo'yicha **11 913,3** mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning **56,4** % ni tashkil etdi, mashina, uskunalar va jihozlarni xarid qilishga **8 129,9** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **38,4%** i) va boshqa xarajatlarga **1 094,8** mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi **5,2** % i) investitsiyalar o'zlashtirilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning jamiga nisbatan ulushi, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida yuqoridagi diagrammada ko'rsatib o'tilganidek, tashish va saqlash faoliyati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan **6 266,4** mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning **29,6** % i o'zlashtirilgan.

Shuningdek asosiy kapitalga investitsiyalarning eng ko'p investitsiya hajmlari ishlab chiqaradigan sanoatiga **15,8** % (yoki **3 343,3** mlrd. so'm), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **13,0** (yoki **2 750,6** mlrd. so'm), tog'-kon sanoatiga **9,1** % (yoki **1 913,5** mlrd. so'm), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **8,9** % (yoki **1 876,4** mlrd. so'm), uy-joy qurilishiga **8,2** % (yoki **1 739,9** mlrd. so'm), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga **2,4** % (yoki **509,4** mlrd.

so'm), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalarni tamirlashga **2,4 %** (yoki **501,6** mlrd. so'm), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishga **2,2 %** (yoki **469,6** mlrd. so'm), qurilishga **2,1 %** (yoki **453,7** mlrd. so'm), ta'limga **1,8 %** (yoki **371,3** mlrd. so'm), boshqa faoliyat turlariga **4,5 %** (yoki **942,3** mlrd. so'm) to'g'ri keladi.


Turar-joy qurilishiga investitsiyalar aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishi bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog'liq.

Xorijiy investitsiya va kreditlar jamiga nisbatan ulushi, % da



2022- yil yanvar-dekabr oylarida **11 999,5** mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning umumiy hajmining **56,8 %** i xorijiy investitsiya va kreditlari hisobidan amalga oshirilgan. O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **89,3 %** ni tashkil qilgan. Shundan xorijiy investitsiyalarning hajmi **3 346,5** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **27,9 %** ni tashkil qildi. Xorijiy kreditlarning hajmi **8 653,0** mlrd. so'mni, jami xorijiy investitsiya va kreditlardagi ulushi **72,1 %** ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiyalar va kreditlarning jamiga nisbatan ulushi, % da




- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Tog'-kon sanoati
- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr energiyasi va gaz ta'minoti
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish
- Tashish va saqlash
- Qurilish
- Boshqa faoliyat turlari

Xorijiy investitsiya va kreditlarning asosiy hajmi tashish va saqlashga **4 437,1** mlrd. so'm (yoki **37,0** %), ishlab chiqarish sanoatiga **2 490,5** mlrd. so'm (yoki **20,8** %), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga **2 174,0** (yoki **18,1** %), tog'-kon sanoatiga **1 048,6** mlrd. so'm (yoki **8,7** %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga **1 036,8** mlrd. so'm (yoki **8,6** %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishga **217,3** mlrd.so'm (yoki **1,8** %), qurilishga **129,6** mlrd. so'm (yoki **1,1** %) va boshqa faoliyat turlariga **465,6** mlrd. so'm (yoki **3,9** %) to'g'ri keladi.

Xorijiy investitsiya va kreditlar (mlrd. so'mda)

	Jami investitsiya va kreditlar	Shu jumladan:		
		To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan xorijiy kreditlar	Boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
Jami	11 999,5	2 484,8	1 383,8	8 130,9
Buxoro sh	1 551,8	221,2	956,0	374,6
Kogon sh	72,6	7,5	49,5	15,6
Olot	468,2	85,9	330,3	52
Buxoro	1 339,8	1 032,0	0,5	307,3
Vobkent	344,6	-	0,4	344,2
G'ijduvon	761,6	599,7	0,4	161,5
Kogon	3 292,3	183,8	37,0	3 071,5
Qorako'l	125,9	3,1	9,0	113,8
Qorovulbozor	866,3	538,7	-	327,6
Peshko'	793,2	605,7	0,1	187,4
Romitan	2 167,2	10,4	-	2 156,8
Jondor	160,5	15,6	0,3	144,6
Shofirkon	55,5	43,0	0,4	12,1

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida



Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar tumanlar kesimida tahlil qilinganda, Romitan tumani eng yuqori o'rinni egalladi. Ushbu tumanda **4 492,2** mlrd. so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilgan, o'sish sur'ati **59,2** % ni tashkil qildi. Keyingi o'rinni Kogon tumani egalladi, o'zlashtirilgan investitsiyalar **3 741,7** mlrd. so'm, o'sish sur'ati **2,1 m.** ni tashkil qildi. Buxoro shahri **3 789,8** mlrd. so'mlik asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar bilan uchinchi o'rinni egalladi. Ushbu hududda o'zlashtirilgan investitsiyalarning o'sish sur'ati **75,4** % ni tashkil qildi.

Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar shahar va tumanlar kesimida

	Ming soʻmda	Oʻsish surʻati, % da
Jami	10 604,5	90,6
Buxoro sh	13 228,0	74,3
Kogon sh	2 849,8	46,8
Olot	7 753,7	54,0
Buxoro	12 715,1	139,6
Vobkent	5 402,3	114,1
Gʻijduvon	4 128,4	173,5
Kogon	45 686,0	2,0 m.
Qorakoʻl	3 097,7	45,1
Qorovulbozor	63 560,3	133,3
Peshkoʻ	9 458,4	177,8
Romitan	30 435,0	58,2
Jondor	2 957,3	92,1
Shofirkon	1 992,0	75,2

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning aholi jon boshiga taqsimotida eng yuqori koʻrsatkichni Qorovulbozor tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **63 560,3** ming soʻmni, oʻsish surʻati **133,3 %** ni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Kogon tumani egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **45 686,0** ming soʻmni, oʻsish surʻati **2,0 m.** ni tashkil qildi. Romitan tumani uchinchi oʻrinni egalladi. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar aholi jon boshiga **30 435,0** ming soʻmni, oʻsish surʻati **58,2 %** ni tashkil qildi.

Ob'yektlarni ishga tushirish

2022- yilning yanvar – dekabr oylarida umumiy maydoni **1 495,8** ming kv.m. bo'lgan **6 707** xonadonli **5 143** ta turar-joy ishga tushirildi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **111,8** foizni tashkil etdi. Shundan umumiy maydoni **1 091,3** ming kv.m bo'lgan **4 486** ta xonadonli **4 191** ta turar joylar qishloq joylariga to'g'ri keladi. (O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati **110,2** %) Turar-joylarni qurilishiga **1 732,9** mlrd. so'm miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni:

(65) 223-81-99